


V. XIZMATLAR

Iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo‘lgan xizmatlar sohasining ahamiyati juda ulkan va dolzarb hisoblanadi. Ishlab chiqarish jarayonlarining tobora murakkablashib borayotganligi, bozorni kunlik va individual talablarga mos iste’mol mollari bilan to‘ldirish, innovatsion rivojlanishning jadal o’sishi jamiyat hayotining yangilanishiga olib keladi. Bu axborot, moliya, transport, sug‘urta va boshqa turdagи xizmatlarsiz amalga oshmaydi.


2023- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, 41 612 ta faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlardan, xizmatlar sohasida 24 768 ta korxona va tashkilotlar jalb qilingan.

**2023- yil 1- yanvar holatiga korxona va tashkilotlarning umumiyl sonida xizmatlar
sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan
korxona va tashkilotlarning ulushi, %
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)**



Xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar va korxonalar umumiyl sonining 19 695 ta korxona va tashkilotlar kichik biznes subyektlarini tashkil etadi. 2023- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, ularning ulushi 79,5 %ni tashkil etdi.

**2023- yil 1- yanvar holatiga xizmatlar sohasiga jalb qilingan,
kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi, %**




2023- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida savdo faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxona va tashkilotlar ulushi (49,8 %) yuqori.

Yaqin va uzoq xorij mamlakatlar bilan, shuningdek turizm sohasida o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar sonining o‘sishiga ta’sir ko‘rsatdi. Ularning ulushi 8,1 %ni tashkil etdi.

Tashish va saqlash faoliyati bilan shug‘ullanuvchi faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning xizmat ko‘rsatish sohasidagi korxona va tashkilotlar umumiy sonidagi ulushi 4,3 % ni tashkil etdi.

Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida xizmat ko‘rsatuvchi faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 3,4 %ni tashkil etdi.

Axborot va aloqa xizmatlari sohasida xizmatlar ko‘rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 1,9 %ni tashkil etdi.




Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yil yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 15 945,8 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 114,1 % ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarning tarkibida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlaganda savdo xizmatlariga (32,2 %), transport xizmatlariga (21,3 %), avtotransport xizmatlariga (20,5 %), moliyaviy xizmatlariga (16,8 %) yuqori ulushlar ketma-ketligi kuzatildi.

Qashqadaryo viloyatining ijtimoiy iqtisodiy holati

2022- yil yanvar-dekabr oylarida ko‘rsatilgan
bozor xizmatlari tarkibi, %



2022- yil yanvar-dekabr oylarida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o‘tgan yilga nisbatan 3038,4 mlrd. so‘mga oshdi. Joriy yilning oldingi (2022- yil yanvar-sentabr oylari) davriga nisbatan xizmatlar hajmi 4 478,9 mlrd. so‘mga ko‘paydi

Joriy yilning oldingi davriga nisbatan ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o‘sishiga savdo xizmatlari (1462,0 mlrd. so‘mga), transport xizmatlari (2453,2 mlrd. so‘mga), avtotransport xizmatlar (2 353,7 mlrd. so‘mga), hamda Moliyaviy xizmatlar (1 981,3 mlrd. so‘mga) kabi xizmatlar hajmining oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Ma’lumot uchun: 2021- yilning mos davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar – 603,7 mlrd. so‘mga, savdo xizmatlari – 1 047,4 mlrd. so‘mga, transport xizmatlari 485,4 mlrd. so‘mga va aloqa va axborot sohasidagi xizmatlar – 157,5 mlrd. so‘mga oshgan.

**2022- yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo‘yicha ishlab chiqarilgan xizmatharning asosiy ko‘rsatkichlari**

	<i>Hajmi, mlrd.so‘m</i>	<i>O‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur’ati, %</i>
Xizmatlar – jami	15 945,8	114,1
<i>shu jumladan:</i>		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	765,5	125,3
moliyaviy xizmatlar	2 676,6	126,3
transport xizmatlari	3 401,7	109,2
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	3 263,8	109,1
yashash va ovqatlanish xizmatlari	478,0	107,7
savdo xizmatlari	5 136,6	111,8
ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar	390,0	109,0
ta’lim sohasidagi xizmatlar	631,9	118,3
sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	198,4	102,2
ijara xizmatlari	397,0	116,7
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta’mirlash bo‘yicha xizmatlar	547,7	107,9
shaxsiy xizmatlar	539,8	107,6
me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	214,5	113,6
boshqa xizmatlar	568,1	114,7

Qashqadaryo viloyatining ijtimoiy iqtisodiy holati

Eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar 126,3 % aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 125,3 %, ta'lif sohasidagi xizmatlarda 118,3 % qayd etildi.

Nisbatan pastroq o'sish sur'atlari Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar 102,2 %, shaxsiy xizmatlar 107,6 % hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari 107,7 % da kuzatildi.


Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining uchdan bir qismiga yaqini savdo xizmatlarini tashkil etdi. 2022- yil yanvar-dekabr oylarida uning ulushi 32,2 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori ulushlarni transport xizmatlari 21,3 %, avtotransport xizmatlari 20,5 %, moliyaviy xizmatlar 16,8 % egallaydi.

2022- yil yanvar-dekabr oylarida savdo xizmatlari hajmi 5 136,6 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 32,2 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan savdo xizmatlarining hajmi 1 047,4 mlrd. so'mga oshdi.

Aholining daromadlari darajasining oshishi bilan iste'mol talabi va savdo aylanmasi o'smoqda.

Savdo xizmatlari tarkibi ulushi, % da




Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega.

2022- yil yanvar-dekabr oylarida uning ulushi 85,8 % ni tashkil etdi. Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarining (avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari) ulushi 9,6 % ga yetdi. Avtomobillar va motosikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va motosikllar ulgurji va chakana savdosidan tashqari bo'yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 4,6 % ni egallaydi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish fuqarolik jamiyatida va bozor iqtisodiyotida yuz beradigan jarayonlarga ijobjiy ta'sir ko'rsatish uchun zarur.

Hayotning ko‘pgina sohalarida AKT joriy etilishi va rivojlanishi jamiyat, hukumat va biznes bilan bog‘liq ko‘plab tashqi va ichki jarayonlarni soddalashtirish va tezlashtiradigan muhim element hisoblanadi.

**2022- yil yanvar-dekabr oylarida aloqa va axborotlashtirish
xizmatlarining tarkibi, %**




2022- yil yanvar-dekabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 765,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Oldingi davrga nisbatan o‘sishi 157,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog‘i, yo‘ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) katta qismni egallab, uning ulushi 95,6 % ni tashkil etadi.

Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta’minlash bo‘yicha xizmatlar 94,2 % ulush bilan yetakchilik qilmoqda. Yashash bo‘yicha xizmatlar ulushi 5,8 % ga to‘g‘ri keladi.

Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar tarkibi, %




Qashqadaryo viloyatining ijtimoiy iqtisodiy holati

Valyuta siyosatini erkinlashtirish, istiqbolli investitsiya loyihalarini kreditlash ko‘lamini kengaytirish, shuningdek, moliyaviy tashkilotlar tomonidan innovatsion xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha amalga oshirilgan islohotlar moliyaviy xizmatlar hajmini oshishiga ta’sir ko‘rsatdi.

2022- yil yanvar-dekabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 2 676,6 mlrd. so‘mga teng bo‘lib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati esa 126,3 % ni tashkil etdi.

2022- yil yanvar-dekabr oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %



Moliyaviy xizmatlarning eng katta qismini pul-kredit sohasidagi vositachilik bo‘yicha xizmatlar (88,4 %) tashkil etadi.

Bugungi kunda o‘quv jarayonini sifatli va samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida maktablarni zamonaviy avtomatlashtirilgan laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi, darsliklar va yangi avlod darsliklari bilan ta’minlashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

2022- yil yanvar-dekabr oylarida ta’lim sohasidagi xizmatlar hajmi 631,9 mlrd. so‘mga teng bo‘ldi. O‘tgan yilga nisbatan o‘sish 118,3 % ni tashkil etdi.

Ushbu davrda yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar hajmi 478,0 mlrd. so‘mga teng bo‘ldi. Ko‘rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarning ulushi 3,0 % ga yetdi.

2022- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo‘yicha
xizmatlar ishlab chiqarish hajmi


	<i>Hajmi, mlrd. so‘m</i>	<i>O’tgan yilga nisbatan o‘sish sur’ati, % da</i>
Qashqadaryo viloyati	15 945,8	114,1
Qarshi sh.	4 082,0	117,1
Shahrisabz sh.	714,8	116,9
G‘uzor	701,9	116,5
Dehqonobod	488,1	110,1
Qamashi	1 020,8	111,5
Qarshi	1 244,0	110,4
Koson	1 060,6	116,5
Kitob	1 107,2	112,0
Mirishkor	745,3	111,4
Muborak	994,3	116,8
Nishon	665,6	111,4
Kasbi	657,8	110,9
Ko‘kdala	192,0	113,3
Chiroqchi	515,1	116,8
Shahrisabz	910,0	112,8
Yakkabog‘	846,3	111,3

Qashqadaryo viloyatining ijtimoiy iqtisodiy holati

Hududlar o‘rtasida eng katta hajm Qarshi shahri (4 082,0 mlrd. so‘m), Qarshi tumani (1 244,0 mlrd. so‘m), Kitob (1 107,2 mlrd. so‘m), Koson (1 060,6 mlrd. so‘m) va Qamashi (1 020,8 mlrd. so‘m) tumanlariga to‘g‘ri keladi.

Eng kam hajm Ko‘kdala (192,0 mlrd. so‘m), Dehqonobod (488,1 mlrd. so‘m), Chiroqchi (515,1 mlrd. so‘m) va Kasbi (657,8 mlrd. so‘m) tumanlarida kuzatilmoqda.


2022- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo‘yicha ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining o‘sish sur’ati, %



Yuqori o‘sish sur’atlari Qarshi shahar – 117,1 %, Shahrisabz shahar – 116,9 %, Muborak tumani – 116,8 % va Chiroqchi tumani 116,8 % kuzatildi.

Zamonaviy O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari milliy va mahalliy manfaatlarini hisobga olgan holda respublikaning har bir iqtisodiy salohiyatida tuman va viloyatlarining barcha resurslaridan oqilona foydalanishiga bog‘liqdir.


**2022- yil yanvar-dekabr oylarida ko‘rsatilgan bozor
xizmatlari umumiy hajmida hududlarning ulushi, %da**



Hududlar o‘rtasida xizmatlar umumiy hajmida eng katta ulushni Qarshi shahri (25,6 %), Qarshi tumani (7,8 %), Kitob (6,9 %) va Koson (6,7 %) tumanlari egallaydi.

Hududlar o‘rtasida eng kam ulush Ko‘kdala (1,2 %), Chiroqchi (3,2 %) va Dehqonobod (3,1 %) tumanlariga to‘g‘ri keladi.

**Hududlar bo‘yicha aholi jon boshiga ko‘rsatilgan bozor
xizmatlarining hajmi va o‘sish sur’ati
(2022- yil yanvar-dekabr oylari uchun)**



Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan bozor xizmatlar hajmi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sishi kuzatilmoxda. 2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan hajm 800,1 ming so‘mga oshib, 4628,0 ming so‘mga teng bo‘ldi.

Tumanlar orasida bu ko‘rsatkich Qarshi shahrida 14257,7 ming so‘mdan, Ko‘kdala tumanida 1068,7 ming so‘mgacha oralig‘ida farq qildi.

Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlarning eng yuqori o‘sish sur’atlari Chiroqli tumanida (192,5 %), Shahrisabz shahrida (115,2 %) va Qarshi shahrida(114,8 %) kuzatildi.

Uncha yuqori bo‘lmagan o‘sish sur’atlari Qarshi (107,7 %), Dehqonobod (107,9 %), Kasbi (108,5 %) va Nishon (108,9 %) tumanlarida qayd etildi.

**2022- yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha
savdo xizmatlari hajmi**




Savdo xizmatlari hajmi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Qarshi shahrida (1141,7 mlrd. so'm), Qarshi (570,0 mlrd. so'm) va Koson (530,6 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

Savdo xizmatlari eng kichik ko'rsatkich Ko'kdala (77,0 mlrd. so'm) tumanida qayd etildi.

2022- yil yanvar-dekabr oylarida savdo xizmatlari hajmi 5 136,6 mlrd. so'mga teng bo'ldi, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 111,8 % ni tashkil etdi.

Qashqadaryo viloyatining ijtimoiy iqtisodiy holati


**2022- yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo‘yicha
savdo xizmatlarining o’sish sur’ati, % da**



2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan savdo xizmatlarida eng yuqori o’sish sur’ati Qarhi shahrida (117,4 %), Koson (115,8 %) va Kitob tumanlarida (115,6 %) kuzatildi.

Eng kam o’sish sur’ati Nishon (99,6 %) va Kasbi (102,1 %) qayd etildi.

**2022- yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo‘yicha
savdo xizmatlari ulushi, % da**




Savdo xizmatlari hajmida eng katta ulushni shahar va tumanlar o‘rtasida Qarshi shahri (22,2 %) va Qarshi (11,1 %) tumanlari egallaydi.

Shahar va tumanlar o‘rtasida eng kam ulush Shahrisabz shahri (2,2 %) Ko‘kdala (1,5 %), va G‘uzor (2,3 %) tumanlariga to‘g‘ri keladi.

2022- yil yanvar-dekabr oylarida transport xizmatlari hajmi 3 401,7 mlrd. so‘mga teng bo‘ldi. O‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati 109,2 % ni tashkil etdi.

2022- yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo‘yicha transport xizmatlarining o‘sish sur’ati va hajmi



Transport xizmatlari hajmi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Qarshi shahrida (399,7 mlrd. so‘m) va Qarshi tumanida (338,3 mlrd. so‘m) qayd etildi.

Transport xizmatlari hajmi bo‘yicha eng kichik ko‘rsatkich Ko‘kdala tumanida (36,9 mlrd. so‘m) qayd etildi.